



UO‘K:821.512.133.09-343

ADABIY ERTAK JANRI RIVOJIDA HAMID OLIMJONNING O‘RNI VA
UNING UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTEBLARIDA O‘QITILISH
SAMARADORLIGI

HAYITOVA DURDONA JO‘RABEK QIZI

Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc), dots. MATYOQUBOVA T

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya

Maqolada XX asr o‘zbek adabiyotida adabiy ertak janrining shakllanish va rivojlanish bosqichlari Hamid Olimjon ijodi misolida tahlil etiladi. Shoirning “Oygul bilan Baxtiyor” va “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” ertak-dostonlari xalq og‘zaki ijodi an‘analari bilan yozma adabiyotning ijodiy sintezi sifatida o‘rganildi. Tadqiqotning amaliy qismida Toshkent shahridagi 191-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 5-sinflarida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari aks ettirildi. 48 nafar o‘quvchi (24 nafarli tajriba va 24 nafarli nazorat guruhleri) hamda 12 nafar adabiyot fani o‘qituvchisi ishtirokidagi tajriba davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan interaktiv-tahliliy metodik model tatbiq etildi. Yakuniy nazorat ishi natijalari tajriba guruhida o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 49 % dan 82 % gacha (33 % o‘sish), nazorat guruhida esa 48 % dan 64 % gacha (16 % o‘sish) ko‘tarilganini ko‘rsatdi. Olingan natijalar adabiy ertakni o‘qitishda janr-poetik, obrazli-ramziy va interaktiv-tahliliy yondashuvlar uyg‘unligi yuqori samaradorlikka erishtirishini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: adabiy ertak, ertak-doston, folklor, Hamid Olimjon, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘”, janr poetikasi, obrazlar tizimi, ramziy timsol, interaktiv metodika, tajriba-sinov, 5-sinf adabiyot ta‘limi.

Kirish

Mustaqillik yillarida ma‘naviy hayotimizni yangilash, milliy adabiy merosni qayta tahlil qilish va ta‘lim mazmunini boyitishga qaratilgan davlat siyosati zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi oldiga yangi vazifalar qo‘ydi. Jumladan, XX asr adabiyoti namoyandalari ijodini o‘rganishda janr-poetik yondashuvni chuqurlashtirish, ularning





xalq og‘zaki ijodi bilan munosabatini qayta o‘rganish hamda mazkur badiiy meros imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish zaruriyati alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbek adabiyotining shakllanish va taraqqiyot jarayonida xalq og‘zaki ijodi bilan yozma adabiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik doimo muhim rol o‘ynagan. Folklor namunalaridan biri – ertak xalqning orzu-umidlari, ezgulik va adolat haqidagi tasavvurlarini, milliy dunyoqarashini, axloqiy qadriyatlarini mujassam etgan. XX asr o‘zbek adabiyotida ertaklar zaminida shakllangan adabiy ertak janri esa milliy adabiy tafakkur taraqqiyotida yangicha bosqichni boshlab berdi.

Adabiy ertak – xalq ertaklariga xos syujet, obrazlar tizimi va til xususiyatlarini saqlagan holda, yozma adabiyotning badiiy qonuniyatlari asosida qayta ishlangan asardir. Bu janr orqali muallif o‘z davrining ijtimoiy hayoti, axloqiy muammolari va ma’naviy qadriyatlarini ramziy ifoda vositalari orqali yoritadi. Shu jihatdan adabiy ertak ikki yoqlama tabiatga ega: bir tomondan, u xalq ijodi tajribasiga tayanadi; ikkinchi tomondan, yozma adabiyotning individual uslub, kompozitsion yaxlitlik, obraz psixologiyasi va g‘oyaviy konsepsiya kabi belgilarini o‘zida mujassamlashtiradi.

O‘zbek adabiyotida adabiy ertak janrining shakllanishida Hamid Olimjon ijodi alohida o‘rin tutadi. Shoir xalq og‘zaki ijodining boy an‘analarini chuqur o‘rganib, ularni o‘zining zamonaviy badiiy tafakkuri bilan uyg‘unlashtira olgan ijodkorlardan biridir. Uning “Oygul bilan Baxtiyor” va “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod” ertak-dostonlari o‘zbek adabiy ertak janrining yuksak namunalaridir. Bu asarlarda xalq eposi motivlari, afsonaviy timsollar, ezgulik va sadoqat g‘oyalari zamonaviy badiiy talqinda ifodasini topgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchidan, Hamid Olimjon adabiy ertaklarining o‘ziga xos poetik xususiyatlari xalq ertaklari an‘analari va individual badiiy tafakkur uyg‘unligi misolida tizimli ravishda yoritildi; ikkinchidan, shoir asarlarining 5-sinf adabiyot kursida o‘qitilishi xususida ishlab chiqilgan interaktiv-tahliliy metodik modelning amaliy samaradorligi tajriba-sinov yo‘li bilan empirik jihatdan baholandi; uchinchidan, asar obrazlari tizimining maktab adabiyot ta’limidagi metodik talqini bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.





Mazkur maqolaning maqsadi – Hamid Olimjon adabiy ertaklarining nazariy-badiiy xususiyatlarini va ularni umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfida oʻqitishning samarali metodik modelini ilmiy asoslashdan iborat.

Material va metodlar

Tadqiqotning materiali sifatida Hamid Olimjonning “Mukammal asarlar toʻplami”, “Oygul bilan Baxtiyor” va “Semurgʻ yoki Parizod va Bunyod” ertak-dostonlari, oʻzbek xalq ertaklari namunalari, folklorshunoslik va adabiyotshunoslikka oid ilmiy monografiyalar, maqolalar, avtoreferatlar hamda umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinf adabiyot darsliklari xizmat qildi. Nazariy bazani V. Ya. Proppning sehrli ertak morfologiyasi haqidagi qarashlari, M. Lyutining adabiy ertak konsepsiyasi, K. Imomov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, O. Safarovning oʻzbek folklorshunosligiga oid tadqiqotlari, N. Karimov, O. Sharafiddinov, N. Rahimjonovning Hamid Olimjon ijodi yuzasidan ilmiy xulosalari tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi: tarixiy-adabiy metod – adabiy ertak janrining shakllanish bosqichlarini aniqlashda; qiyosiy-tahliliy metod – xalq ertaklari va Hamid Olimjon adabiy ertaklari oʻrtasidagi munosabatni oʻrganishda; struktur-poetik metod – asarlar syujeti, kompozitsiyasi va obrazlar tizimini tahlil qilishda; badiiy-estetik metod – til vositalari, ramziy obrazlar va muallif uslubini baholashda; pedagogik-metodik tahlil va eksperiment – metodik modelning amaliy samaradorligini aniqlashda.

Tajriba-sinov ishlari 2025–2026-oʻquv yili davomida Toshkent shahridagi 191-umumiy oʻrta taʼlim maktabining 5-sinflarida olib borildi. Tajribada jami 48 nafar 5-sinf oʻquvchisi (har biri 24 nafardan iborat nazorat va tajriba guruhleri) hamda 12 nafar oʻrta maktab adabiyot fani oʻqituvchisi ishtirok etdi. Guruhlar dastlabki oʻzlashtirish darajasi, oʻquvchilar soni va jins tarkibi jihatidan bir-biriga yaqin tarzda shakllantirildi.

Tajriba uch bosqichda amalga oshirildi:

1) tayyorlov bosqichi (sentyabr–oktyabr) – davlat taʼlim standarti va darslik tahlili, oʻqituvchi va oʻquvchilar uchun soʻrovnomalar tuzilishi, dars rejalari ishlab chiqilishi;

2) shakllantiruvchi bosqich (noyabr–dekabr) – nazorat guruhida anʼanaviy metodlar boʻyicha, tajriba guruhida esa muallif tomonidan ishlab chiqilgan interaktiv-





tahliliy metodik model asosida “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostoni bo‘yicha to‘rt soatlik darslar tsikli o‘tkazilishi;

3) yakunlovchi bosqich (dekabr) – yakuniy nazorat ishining o‘tkazilishi, takroriy so‘rovnomalar va olingan natijalarning miqdoriy hamda sifat jihatidan tahlili.

Tajriba guruhida har bir darsda kamida ikkita interaktiv usuldan (klaster, Venn diagrammasi, “Insert”, “Aqliy hujum”, “Galereya” va loyihaviy topshiriqlar) foydalanildi. Yakuniy nazorat ishida o‘quvchilarga asar mazmunini bayon etish, obrazlarga ta’rif berish, janr belgilarini ko‘rsatish va asar g‘oyasini ifodalash kabi to‘rt yo‘nalishdagi topshiriqlar berildi. O‘quvchilarning bilim darajasi 5 balli tizimda baholandi va foiz ko‘rsatkichlariga aylantirildi.

Natija va muhokama

1. Adabiy ertak va xalq ertagining qiyosiy tahlili

Adabiy ertak xalq ertagidan bir qator muhim jihatlari bilan farqlanadi. Xalq ertagi kollektiv ijod mahsuli sifatida og‘zaki ijroda yashasa, adabiy ertak aniq muallifga tegishli yozma matndir. Xalq ertagida qahramonlar ko‘pincha funksional sxematik tabiatga ega bo‘lsa, adabiy ertakda ular individuallashtirilgan, psixologik jihatdan kengroq tasvirlanadi. Asosiy farqlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Adabiy ertak va xalq ertagining asosiy farqlari

Mezon	Xalq ertagi	Adabiy ertak
Yaratuvchi subyekt	Anonim, jamoaviy ijod mahsuli	Aniq muallifga tegishli individual badiiy matn
Matn tabiati	Og‘zaki ijroda yashaydi, variantlarga ega	Yozma shaklda mustahkamlangan, nisbatan kanonik
Syujet qurilishi	An‘anaviy funksiyalar va qoliplar ustuvor	An‘anaviy model muallif g‘oyasi bilan qayta ishlangan
Obrazlar	Funksional, sxematik (yaxshi, yomon)	Individuallashtirilgan, psixologik chuqurroq
Til va uslub	Xalqona ohang, formulalar (“bor ekan, yo‘q ekan”)	Muallif uslubi, lirik-romantik bo‘yoq





G'oyaviy yo'nalish	Umumxalq orzusi, axloqiy me'yor	Muayyan ijtimoiy-falsafiy konsepsiya
Makon va zamon	Mavhum, umumiy	Ko'pincha tarixiy-milliy muhitga yaqinlashtirilgan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, adabiy ertak xalq ertagining oddiy davomi emas, balki folklor bilan yozma adabiyot o'rtasidagi ijodiy sintez mahsulidir. Hamid Olimjonning adabiy ertaklari mana shu sintezning yuksak badiiy namunalari.

2. Hamid Olimjon ijodida adabiy ertakning poetik xususiyatlari

Hamid Olimjon adabiy ertak janriga tasodifan murojaat qilgan ijodkor emas. Uning ertak-dostonlari shoir shaxsiyatining shakllanishi, bolalik xotiralari, oilaviy tarbiya muhiti, Jizzax adabiy muhiti va xalq baxshilari (Fozil Yo'ldosh o'g'li va boshqalar) bilan bevosita aloqasi natijasida yuzaga kelgan. Shoirning onasi Komila aya ertak, qo'shiq, topishmoq va rivoyatlarga boy xotiraga ega bo'lib, yosh Hamidning badiiy dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

“Oygul bilan Baxtiyor” asarida ertak janriga xos baxt izlash motivi, oshiq-ma'shuqa taqdiri, to'siq va sinovlar, yovuz kuchlar bilan kurash, ezgulikning yakuniy g'alabasi kabi tarkibiy unsurlar mavjud. Biroq asar xalq ertagining oddiy qayta hikoyasi emas. Unda Oygul obrazi go'zallik, sadoqat, poklik va ma'naviy qat'iyat timsoli sifatida talqin qilinadi. Baxtiyor esa faqat sevgilisi uchun kurashuvchi qahramon emas, balki adolat va baxt sari intiluvchi inson timsolidir. Shoirning lirik tasviri voqeani romantik darajaga ko'taradi; tabiat manzaralari, ritmik ohang va poetik ifoda ertak syujetini chuqur emotsional mazmun bilan boyitadi.

“Semurg' yoki Parizod va Bunyod” asarida xalqona fantastika yanada kengroq ramziy qatlamga ega bo'ladi. Folklorshunoslikda Semurg' obrazi sehrli yordamchi sifatida talqin qilinsa, Hamid Olimjon bu an'anaviy obrazni Bunyodning ruhiy qat'iyati va maqsadga sodiqligini ochuvchi poetik vositaga aylantiradi. Bunyodning ilonni o'ldirib, Semurg' bolalarini qutqarishi faqat jismoniy jasorat emas, balki ezgulikning ilk sinovidir; sehrli madad qahramonning ichki ma'naviy sifati natijasi sifatida talqin qilinadi. Bu jihatdan Hamid Olimjon Semurg' obrazi orqali o'zbek adabiy ertakchiligida mumtoz Sharq adabiy merosi (Attorning “Mantiq ut-tayr”i, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”i) bilan xalq og'zaki ijodi an'analari sintezini amalga oshiradi.





Asar obrazlari tizimining metodik nuqtai nazardan umumlashtirilgan tahlili 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

**Hamid Olimjon adabiy ertaklaridagi asosiy obrazlar va o'qitishda e'tibor
qaratiladigan jihatlar**

Asar	Obraz	O'qitishda e'tibor qilinadigan jihat
“Oygul bilan Baxtiyor”	Oygul	Ayol matonati, adolat, xalqparvarlik timsoli
“Oygul bilan Baxtiyor”	Baxtiyor	Sadoqat, sevgi va ezgulik uchun kurash
“Oygul bilan Baxtiyor”	Darxon	Xalqning tarixiy xotirasi, ozodlikka intilish
“Oygul bilan Baxtiyor”	Dev / zolim hokim	Jaholat va zulmning ramziy ifodasi
“Semurg”	Bunyod	Iroda, sabr va ichki qat'iyat timsoli
“Semurg”	Parizod	Sof go'zallik va orzu obrazi
“Semurg”	Semurg	Mumtoz Sharq adabiyoti bilan folklor sintezi, ma'naviy parvoz ramzi

3. Tajriba-sinov ishining natijalari

Tajribaning tayyorlov bosqichida 12 nafar adabiyot fani o'qituvchisi ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma joriy o'quv adabiyotidagi materialning yetarli emasligi (12 nafardan faqat 2 nafari yetarli deb hisobladi), asarning janriy o'ziga xosligini o'quvchilarga tushuntirish 9 nafar o'qituvchi uchun qiyinchilik tug'dirishi, ramziy obrazlar tahlilida esa 11 nafar o'qituvchi qo'shimcha material talab qilishi aniqlandi. Ushbu ma'lumotlar interaktiv-tahliliy yondashuv zarurligini tasdiqladi.

Shakllantiruvchi bosqichda nazorat guruhida darslar an'anaviy metodlar (mazmun bayoni, savol-javob, qisman tahliliy suhbat) bilan, tajriba guruhida esa muallif tomonidan ishlab chiqilgan to'rt darsli tsikl (“Hamid Olimjon ijodi olamiga sayohat”, “Syujet va voqealar tahlili”, “Obrazlar olami”, “Janriy xususiyatlar va g'oyaviy mazmun”) asosida olib borildi. Tajriba darslarining har birida klaster, Venn






diagrammasi, “Insert”, “Aqliy hujum” va galereya kabi interaktiv usullar bilan birga ko‘rgazmali jadvallar va sxemalar qo‘llanildi.

Yakuniy nazorat ishining miqdoriy natijalari 3-jadvalda va 1-rasmda aks ettirilgan.

3-jadval

Tajriba-sinov darslarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (n = 24)	Tajriba guruhi (n = 24)
Darsdan oldingi o‘rtacha natija	48 %	49 %
Darsdan keyingi o‘rtacha natija	64 %	82 %
O‘shish ko‘rsatkichi	+ 16 %	+ 33 %
Faol ishtirok etgan o‘quvchilar	13 nafar	21 nafar
Obrazlar tahlilini mustaqil bajara olganlar	11 nafar	19 nafar



1-rasm. Nazorat va tajriba guruhlarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining qiyosiy diagrammasi

Jadval va diagramma ma‘lumotlaridan ko‘rinishicha, dars boshida ikkala guruhda o‘quvchilarning bilim darajalari amalda teng bo‘lgan (nazorat – 48 %, tajriba




– 49 %). Tajriba yakunida esa nazorat guruhidagi ko'rsatkich 64 % ga, tajriba guruhidagi ko'rsatkich 82 % ga ko'tarildi. Shu tariqa an'anaviy metodlarda o'zlashtirish 16 % ga, muallif metodik modeli sharoitida esa 33 % ga – ya'ni ikki barobardan ortiq – o'sganligi qayd etildi. Bu farq interaktiv-tahliliy yondashuvning empirik samaradorligini tasdiqlaydi.

Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil ham mazkur xulosani tasdiqlaydi (4-jadval va 2-rasm).

4-jadval

Sifat mezonlari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarini natijalarini qiyoslash

Sifat mezonlari	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Farq
Janr tahlili (ertak va doston farqi)	46 %	79 %	+ 33 %
Obrazlar tahlili	50 %	81 %	+ 31 %
Konflikt va g'oya tahlili	42 %	75 %	+ 33 %



2-rasm. Sifat mezonlari bo'yicha guruhlar ko'rsatkichlarining qiyosiy diagrammasi



Tajriba guruhi natijalari uchala yo'nalishda ham nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan o'rtacha 30–33 % ga yuqori bo'lgan. Bu ko'rsatkichlar interaktiv-tahliliy yondashuv o'quvchilarda nafaqat asar mazmunini bayon etish, balki uni janr nuqtai nazaridan tahlil qilish, obrazlarni tushunish va asarning g'oyaviy mohiyatini ifodalash ko'nikmalarini ham shakllantirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tajriba so'ngida o'quvchilarning ijodiy yozma ishlari ("Oygul obrazida menga yoqqan fazilatlar", "Agar men Oygul o'rnida bo'lganimda..." mavzularidagi insholar) ham sezilarli sifat farqini namoyon etdi. Tajriba guruhi o'quvchilari javoblarida asar obrazlarini shaxsiy-axloqiy qarashga aylantirish, axloqiy xulosa chiqarish va mustaqil baholash holatlari ko'proq kuzatildi. Nazorat guruhi o'quvchilarining javoblari esa ko'pincha asar mazmunini qayta hikoya qilish darajasida cheklangan.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Adabiy ertak – xalq og'zaki ijodining poetik xotirasi, muallifning individual badiiy tafakkuri hamda muayyan davrning ma'naviy-estetik ehtiyojlari kesishgan nuqtada vujudga keladigan murakkab janriy hodisadir. U xalq ertagidan yaratuvchi subyekt, matn tabiati, obrazlar individualligi, til va uslub, g'oyaviy yo'nalishi jihatlaridan farqlanadi.

2. Hamid Olimjon o'zbek adabiy ertak janri rivojida alohida o'rin tutadi. Uning "Oygul bilan Baxtiyor" va "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" ertak-dostonlari folklor an'analari va individual badiiy mahoratning yuksak sintezi sifatida o'zbek she'riy ertak-dostonchiligida yangi badiiy bosqichni belgilab berdi.

3. Asar obrazlari (Oygul, Baxtiyor, Darxon, Bunyod, Parizod, Semurg', dev) shoir tomonidan ko'p qatlamli ramziy mazmun bilan boyitilgan. Ular maktab adabiyot ta'limida o'quvchilarning axloqiy-estetik tarbiyasi uchun samarali metodik vositadir.

4. Tajriba-sinov ishlari interaktiv-tahliliy metodik model an'anaviy yondashuvga nisbatan ancha samarali ekanini empirik jihatdan tasdiqladi: tajriba guruhi o'quvchilarining yakuniy o'zlashtirish ko'rsatkichi 49 % dan 82 % gacha (33 % o'sish) ko'tarildi, nazorat guruhida esa bu o'sish 16 % ni tashkil etdi. Sifat mezonlari (janr tahlili, obrazlar tahlili, konflikt va g'oya talqini) bo'yicha ham tajriba guruhi natijalari nazorat guruhidan o'rtacha 30–33 % ga yuqori bo'lgan.





5. Olingan natijalar asosida Hamid Olimjon adabiy ertaklarini 5-sinf adabiyot kursida o'qitishda mavzuga ajratiladigan o'quv soatlarini ko'paytirish, darslikka asarning folklor manbalari va ramziy obrazlar tizimi bo'yicha qo'shimcha topshiriqlarni kiritish, hamda interaktiv-tahliliy metodlarni majburiy element sifatida joriy etish to'g'risida metodik tavsiyalar berildi.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida "O'zbek bolalar adabiyoti", "Istiqlol davri o'zbek adabiyoti", "Adabiyot nazariyasi" fanlarini o'qitishda, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda ilmiy-amaliy manba sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/5841063>

2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 124.

3. Propp V. Ya. Morfologiya skazki. – L.: Academia, 1928. – S. 30–35.

4. Propp V. Ya. Morphology of the Folktale. – Austin: University of Texas Press, 1968. – P. 22.

5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 85.

6. Karimov N. Hamid Olimjon: Hayoti va ijodi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B. 12.

7. Karimov N. Hamid Olimjon ijodida xalq og'zaki ijodi an'analari // Sharq yulduzi. – 2009. – № 3. – B. 145–152.

8. Sariboyeva M. Hamid Olimjonning ertak-dostonlari mahorati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – B. 15.

9. Sarimsoqov B. O'zbek folklorida janrlararo munosabatlar. – Toshkent: Fan, 1986. – B. 92.

10. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B. 156.





11. Olimjon H. Oygul bilan Baxtiyor. Dostonlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1999. – B. 3–20, 33–58.
12. Olimjon H. Mukammal asarlar to‘plami. III jild. “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1980. – B. 24–96.
13. Lüthi M. The European Folktale: Form and Nature. – Bloomington: Indiana University Press, 1986. – P. 24.
14. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 268.
15. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldoshbekov M. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – B. 145–162.
16. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda interfaol usullar. – Toshkent: Turkiston, 2019. – B. 56–72.
17. Yusupov H., Hasanov Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 78–96.
18. Umumiy o‘rta ta’limning adabiyot fanidan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi / Respublika ta’lim markazi. – Toshkent, 2022. – B. 18–24.
19. Raximova U. D. Hamid Olimjon dostonlarida qofiyaning nutqiy xususiyati va badiiy-estetik vazifalari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2023. – 56 b.

